

# **Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektorining 2-7 apreldagi Italiyaga xizmat safari natijalari**

2022 yil 2-7 aprel kunlari “O’zavtosanoat” AJ delegatsiya a’zolari Italiyaning Turin Politexnika universiteti bilan hamkorlikda mamlakatimizda avtomobilsozlik sohasida ta’lim klasterini yaratish va bu orqali ta’lim sifatini ko’tarish bo’yicha bir qator masalalarни muhokama qilish maqsadida Italiyaning Turin shahriga xizmat safarini amalga oshirdi.

Delegatsiya a’zolarini Turin Politexnika universiteti rektori Guido Sarakko boshchiligidagi administratsiya xodimlari kutib oldi, rasmiy tashrif doirasida universitet hududida joylashgan o’quv va ilmiy laboratoriylar bilan tanishuv, avtomobilsozlik sohasidagi tadqiqot markazlari va korxonalariga tashrif amalga oshirildi.

Rasmiy uchrashuvda delegatsiya a’zolari O’zbekiston xududlarida Turin politexnika universiteti bilan hamkorlikda mashinasozlik sohasida o’rta bo’g’in mutaxassislarini tayyorlash uchun o’quv muassasalarini tashkil etish bo’yicha muzokaralar o’tkazdi.

Muzokaralar natijasida, Italiyaning Turin Politexnika universiteti bilan hamkorlikda Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 2022-2023 o’quv yilidan boshlab “Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari” (Industrial manufacturing technologies) professional oliy ta’lim yo’nalishini ochishi kelishildi va birinchi bosqichga 150 ta talaba qabul qilinishi belgilandi.

Ushbu ta'lif dasturini 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Andijon mashinasozlik instituti huzurida tadbiq qilinishi belgilandi. 2026 yilga qadar ushbu professional ta'lif yo'nalishi bo'yicha talabalar sonini 10 mingga yetkazish va Italiya tomonidan bu uchun kerakli professor o'qituvchilar, adabiyot va mutaxassislar kadrlarni jalb etishga kelishildi.

Italiyalik hamkorlar tomonidan 5 yillik strategik hamkorlik shartnomasi va chora-tadbirlar loyihasini tayyorlash kelishib olindi. Kelishilgan loyihani amalga oshirishni boshlash maqsadida Italiyaning Turin Politexnika Universiteti rektori Guido Saracco boshchiligidagi ishchi-guruh a'zolari yaqin kunlarda Toshkent shahriga kelishi rejalashtirildi.



WWW.POLITO.UZ



WWW.POLITO.UZ